

## O'qituvchi: K. Polvonov

FAN: Jahon tarixi

SINF: 8-sinf

MAVZU: Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi

### TEXNOLOGIK XARITA

MAVZU	8-sinf Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi
<b>Maqsad, vazifalar</b>	<b>Maqsad:</b> O'quvchilarga Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi to'g'risida bilimlar berish <b>Vazifalar:</b> - o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish. - mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimini baholash.
<b>O'quv jarayonining mazmuni</b>	O'quvchilarga Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi to'g'risida bilimlar berish
<b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</b>	<b>Uslub:</b> Og'zaki bayon qilish, "Baxtli tasodif" o'yini, "Tushunchalar mazmuni", "BBB" texnologiyasi. <b>Shakl:</b> suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash. <b>Vosita:</b> Tarqatma materiallar: matnlar, portretlar. <b>Usul:</b> Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida. <b>Nazorat:</b> Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. <b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.
<b>Kutiladigan natijalar</b>	O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida o'quvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol beri shva savollarga javob berishga o'rgatadi. O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishslashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyatini kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholay oladi.
<b>Kelgusidagi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)</b>	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishslash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. O'quvchi: matn bilan mustaqil ishslashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni

	o‘rganadi. O‘z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.
--	---

## **DARSNING BLOK CHIZMASI**

	Dars bosqichlari	Vaqti
	Tashkiliy qism	3 minut
	O‘tilgan mavzuni takrorlash	12 minut
	Yangi mavzuni guruuhlar bilan ishlash	15 minut
	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
	Baholash	3 minut
	Uyga vazifa	2 minut

### **Darsning borishi**

#### **I. Tashkiliy qism:**

O‘quvchilar bilan salomlashish, sinf tozaligiga e’tibor qaratish, o‘quvchilarni darsga tayyorlash, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O‘zbekistonda va dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o‘quvchilar orqali) tanishtirish.

#### **Darsning jihozlanishi va darsga hozirlik ko‘rish**

- 1.Darslik, mavzuga oid rasmlar
- 2.Dunyo va O‘zbekiston xaritasi
- 3.Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar)
4. Sinf xonasini guruhlarga ishlashga tayyorlash (sinf o‘quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhgaga bo‘lib, stollarni qo‘yib chiqish)

#### **Dars turi: Aralash**

Dars jarayonida qo‘llaniluvchi metodlar: “**Baxtli tasodif**” o‘yini, “**Tushunchalar mazmuni**”, “**BBB**” texnologiyasi.

#### **Sinfni guruhlardan ishlashga tayyorlash**

O‘quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga “**Baxtli tasodif**” o‘yini, “**Tushunchalar mazmuni**”, “**BBB**” texnologiyasi haqida tushunchalar beriladi.

.

#### **II. O‘rganilgan mavzuni so`rab baholash**

O‘quvchilar quyidagi “**Baxtli tasodif**” bilet savollarini olib javob beradilar:

(Bunda 5 ta bilet savollari oldindan tayyorlangan bo`ladi, 3 ta bilet savollari to`liq yozilgan, bittasida “**Baxtli tasodif**” - 5 baho deb yoziladi, o‘quvchiga o‘z-o‘zidan 5 baho quyiladi, bitta biletga o‘tilgan mavzuni to`liq so`rab baholash deya yoziladi, o‘quvchi to`liq javob beradi....)  
(o‘qituvchi biletlarni yoki undagi savollarni ko`paytirishi mumkin)

#### **III. Yangi dars mazmuni (8-sinf Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi ):**

O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi

Ma’ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

- ❖ XVI asrda Angliya
- ❖ Kontrreformatsiya
- ❖ Angliya Yelizaveta hukmronligi davrida (1558-1603)
- ❖ Dengiz hukmronligi uchun kurash

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun**

##### **1) Savollar (Tezlik bilan o`quvchilar javob beradilar)**

1. Mutlaq monarxiya haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Angliyaning bugungi to‘liq rasmiy nomini ayting. U davlat tuzumiga ko‘ra qanday davlatligini aniqlang.
3. Angliyadagi reformatsiya va kontrreformatsiyalar haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. XVI asr Angliya tarixida qanday ahamiyatga ega?
5. Yelizaveta Iichki va tashqi siyosatda qanday muvaffaqiyatlarga erishdi?

##### **2) “Tushunchalar mazmuni” texnologiyasidan foydalanish**

T/r	Tushunchalar	Mazmuni
1	Veto	(lotincha - taqilayman) - davlat boshlig‘ining biror qonunni yoki qarorni kuchga kirishdan to‘xtatib q o‘yish huquqi.
2	Kontrreformatsiya	
3	Monarxiya	
4	...	
5		
6		

#### **V. Dars yakunlanadi va baholanadi**

O‘quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni o‘qituvchi baholash uchun o‘quvchilarning uyga berilgan vazifalarni to‘g‘ri bajarganligi, darsdagi faol ishtiroki e’tiborga olinib baholanadi.

#### **VI. Uyga vazifa**

Yangi mavzuni darslik bo‘yicha o‘qib, mavzu oxiridagi savollarga javob tayyorlash va “BBB” jadvalini to`ldirib kelish

(O‘quvchilarga misol tariqasida tushuntirib berish kerak)

BILDIM	BILARDIM	BILMOQCHIMAN

#### **MA`RUZA 5- §. Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi**

**Mutlaq monarxiya.** Mutlaq monarxiya (absolutizm) – oliy - hokimiyatning huquqi hech qanday qonun bilan cheklanmagan yagona bir shaxs - monarx qo‘lida to‘planishidir. Boshqamvning mutlaq monarxiya shakli siyosiy tarqoq mamlakatni yagona markaziy hokimiyat qo‘1 ostida birlashtirish natijasida vujudga keldi. Mutlaq monarxiya mamlakat tarqoqligiga barham berdi. Chunonchi, qirol Genrix USH Tyudor (1509-1547) butun mamlakatni yagona markaz – Londonga

bo`ysundirdi. Aynan mutlaq monarxiya feodallarning o`zaro ichki urushlariga barham bergan. Tyudorlar sulolasidan chiqqan yangi qirollar feodallar qo`sishinlarini tarqatib yubordi. Bo `ysunishni istamagan feodallarning qo`rg`onlarini yer bilan yakson qildi. Isyonchilarning yerkari tortib olindi va qirollik mulkiga qo`sib yuborildi.

Shaharlaming huquqlari cheklab qo`yildi. Toifaviy-vakillik organi bo`lmish parlament butunlay bo`lmasa-da, o`z ahamiyatini yo`qotdi. Yangi soliqlar joriy etish masalasidagina parlament roziligining shartligi belgilabqo`yildi. Angliya qirollari *veto* huquqiga ega edilar. Bu huquq ularga parlamentning har qanday qarorini taqiqlay ohsh imkonini berardi. Mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo`nalishini parlament emas, tarkibini qirol tuzadigan Maxfiy Kengash belgilar edi.

**XVI asrning Angliya tarixidagi o`rni.** XVI asr Tyudorlar sulolasi asri bo`ldi. Bu yuz yillik Angliya tarixida chuqur iz qoldirgan uch yirik tarixiy hodisa bilan ajralib turadi. Bular - reformatsiya, mutlaq monarxiyaning kuchayishi va dengizda Angliya hukmronligining o`matilishiedi. Angliyada reformatsiya qirol Genrix VIII hukmronligi davriga to`g`ri keldi. Angliyada reformatsiya xalqning talabi bilan emas, balki qirolning xohish va irodasi bilan amalga oshirildi. Genrix VIII qirol hokimiyatini yanada mustahkamlash uchun cherkovni yerdan va boshqa mol-mulklardan mahrum etish haqida farmon chiqardi. Ularga qarashli bo`lgan yerlaming 2/3 qismi sotib yuborildi. Angliyada protestantlik ta`limotiga amal qiluvchi cherkov anglikan cherkovi deb ataldi. Qirol cherkov boshlig`i deb e`lon qilindi. Rim Papasi hokimiyati inkor etildi. Katolik cherkovining boyliklari tortib olindi.

**Kontrreformatsiya.** Genrix VIII ning qizi Mariya o`z hukmronligi davrida (1553-1558) kontrreformatsiya o`tkazishgaurindi. U o`zining cherkov boshlig`i ekanligidan foydalaniib, protestantlikni shakkoklik deb e`lon qildi va katolik cherkovini tiklashga kirishdi. Mariya parlamentning Angliyada Rim Papasi hokimiyatini qayta tiklash haqidagi qarori chiqarilishiga erishdi. Ayni paytda shakkoklikka qarshi o`rta asrlar qonunlari qayta tiklandi. Mamlakatda qataq`on boshlandi, katolik dushmanlari olovda yondirildi. Shunday sharoitda ko`pchilik protestantlar Gennaniya va Shveytsariyaga qochib ketib jon saqladilar. Mariyaning qataq`on siyosati mamlakatda norozilikni kuchaytirib yubordi. Hukmron tabaqalar endi Genrix VIII ning boshqa qizi Yelizavetani qirollik taxtiga o`tkazishga qaror qildilar va Maiiya vafotidan so`nggina bunga crishdilar.

**Angliya Yelizaveta hukmronligi davrida (1558-1603).** Yangi qirolicha ajoyib shaxsiy sifatlarga, kuchli irodaga va qobiliyatga ega edi. Yelizaveta I protestantlikni davlat dini deb e`lon qildi. Qirolichaning o`zi «Cherkov va dunyoviy ishlaming oliy hukmdori» unvonini oldi. Cherkov ibodatlari endi xalqning katta qismiga tushunarsiz bo`lgan lotin tilida emas, balki ingliz tilida o`tkaziladigan bo`ldi. Yelizaveta I ning asosiy vazifalaridan biri mamlakat yaxlitligini mustahkamlash edi.

**Dengiz hukmronligi uchun kurash.** Angliyaning bu davrdagi ashaddiy dushmani katolik Ispaniyasi edi. Ispaniya qiroli Filipp II «shakkok» Angbya qiralichasi Yelizaveta I ga nafrat bilan qarardi. Bu davda Gollandiyada Ispaniya zulmiga qarshi harakat boshlanganda Yelizaveta I Gollandiya taralida turdi. Oxu-oqibatda bu ikki davlat o`rtasida 1588-yilda umsh kebb chiqdi. Bo`lib o`tgan jangda Angliya g`alaba qozondi.

**Veto (lotincha - taqiqlayman)** - davlat boshlig`ining biror qonunni yoki qarorni kuchga kirishdan to`xtatib q o`yish huquqi.

**Kontrreformatsiya** - XVI-XVII asrlar o`rtalarida Yevropada Rim Papasi rahnamoligida reformatsiyaga qarshi qaratilgan diniy-siyosiy harakat.

**Monarxiya** (yunoncha - yakka hokimlik) – cheklanmagan huquqqa ega b o`lgan yakka shaxs boshqaradigan davlat.

**O'qituvchi: K. Polvonov**

**FAN: O`zbekiston tarixi**

**SINF: 8-sinf**

O`quvchilar **Buxoroda mangit hukmronligiga oid** savollarga javob berishda qiynalganlar. Bu 8-sinf, O`zbekiston tarixidagi III bobga oid mavzulardan dars o`tilayotganda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalaniб dars o`tish maqsadga muvofiqdir.

Masalan:

### **1. “Beshta to`g`ri, bitta noto`g`ri” o`yini**

T/r	Ma`lumotlar	To`g`ri yoki noto`g`ri	Kalit so`z
1	Muhammad Rahimbiy Buxoro aslzodalari va ruhoniylarining qo'llab-quwatlashi bilan 1756-yilda o`zini hukmdor deb e'lon qildi.		Kitob
2	1756-yili Buxoroda hokimiyat tepasiga yangi sulola — mang`itlar sulolasini keldi		Suv
3	Mang`itlar sulolasini 1920-yilgacha Buxoro xonligida hukmronlik qildi.		Osmon
4	Mang`itlar sulolasini 1925-yilgacha Buxoro xonligida hukmronlik qildi.	Noto`g`ri	Lola
5	Muhammad Hakimbiy 1743-yilda vafot etgan edi.		Daftar
6	Buxoro amirligida eng katta davlat lavozimi — qo'shbegi (vaziri buzruk), ya'ni bosh vazir lavozimi edi.		Handalak

**Izoh:** Noto`g`ri deb topilgan qatordagi kalit so`zni ayting

### **2. “Baxtli tasodif” o`yini**

O`quvchilar quyidagi **“Baxtli tasodif”** bilet savollarini olib mavzu savollariga javob beradilar:  
(Bunda 5 ta bilet savollarini oldindan tayyorlangan bo`ladi, 3 ta bilet savollarini to`liq yozilgan, bittasida “Baxtli tasodif”- 5 baho deb yoziladi, o`quvchiga o`z-o`zidan 5 baho quyiladi, bitta biletga o`tilgan mavzuni to`liq so`rab baholash deya yoziladi, o`quvchi to`liq javob beradi....)  
(o`qituvchi biletlarni yoki undagi savollarini ko`paytirishi mumkin)

### **3. “Tushunchalar mazmuni” texnologiyasi**

T/r	Tushunchalar	Mazmuni
1	Devonbegi	xonlikning moliya-xazina ishlarini boshqargan. Soliqlar undirilishi ustidan nazorat olib borgan.
2	Ko'kaldosh	butun amirlik hududida do'stona yoki dushmanlik munosabatida bo'luvchilar haqida ma'lumotni to'plagan
3	Mushrif	amaldorlar xonga in'om etgan buyumlami hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olgan. Soliq tushumlarini yozib borgan.

4	Mirshab	tungi shahar soqchilari boshlig‘i vazifasini bajargan.
5	....	

#### 4. “Raqamlar tilga kirganda” o`yini

T/r	Yillar	Bo`lgan voqealar
1	1747-yilda	Buxoroda hokimiyat amalda mang‘itlar sulolasi qo‘liga o‘tdi.
2	1756-yildan	Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb atala boshlandi.
3	1920-yilgacha	Mang‘itlar sulolasi Buxoro xonligida hukmronbk qildi.
4	...	
5	....	

#### 5. Alifbe o`yini

Ushbu mashqni bajarish uchun har bir ishtirokchi uchun A4 formatidagi oq qog‘oz varaqlarini tayyorlab qo‘yish kerak. Boshlovchi oldindan har bir varaqda Alifbening bitta harfini yozib qo‘yadi. Agar sinfda bolalar soni Alifbedagi harflar sonidan ko‘proq bo‘lsa, bu vaziyatda biron harflar ustida ishtirokchilar juft bo‘lib ishlashlari mumkin.

##### O‘tkazish usuli:

- Boshlovchi har bir ishtirokchiga Alifbening biron harfi yozilgan A4 qog‘ozini beradi. So‘ng topshiriqni tushuntiradi: har bir ishtirokchi o‘zining varag‘ida berilgan mavzu bo‘yicha yozilgan harfdan boshlanadigan fikrlarni aytib beradi.....

Mashqning muhokamasi o‘tkaziladi.

#### 6. “Maktub” usuli

“Maktub” usulida mavzu qahramonidan biriga ismini yashirgan holda maktub yozib kelish topshirig‘i beriladi. Maktub o`qiladi, o`quvchilar **kimga** yozilganini topadi.

## O'qituvchi: K. Polvonov

FAN: O`zbekiston tarixi

SINF: 8-sinf

MAVZU: Xiva xonligining tashkil topishi

### TEXNOLOGIK XARITA

MAVZU	8-sinf Xiva xonligining tashkil topishi
Maqsad, vazifalar	<p><b>Maqsad:</b> O'quvchilarga Xiva xonligining tashkil topishi to'g'risida bilimlar berish</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>- o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish.</li><li>- mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimini baholash.</li></ul>
O'quv jarayonining mazmuni	Xiva xonligining tashkil topishi to'g'risida bilimlar berish
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p><b>Uslub:</b> Og'zaki bayon qilish, "Baxtli tasodif" o'yini, "Ha-yo'q" mashqi.</p> <p><b>Shakl:</b> suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash.</p> <p><b>Vosita:</b> Tarqatma materiallar: matnlar, portretlar.</p> <p><b>Usul:</b> Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida.</p> <p><b>Nazorat:</b> Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.</p>
Kutiladigan natijalar	<p>O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida o'quvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol beri shva savollarga javob berishga o'rgatadi.</p> <p>O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholay oladi.</p>
Kelgusidagi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	<p>O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p>O'quvchi: matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallarni topadi, ularni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.</p>

## **DARSNING BLOK CHIZMASI**

Dars bosqichlari	Vaqti
Tashkiliy qism	3 minut
O'tilgan mavzuni takrorlash	12 minut
Yangi mavzuni guruuhlar bilan ishlash	15 minut
Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
Baholash	3 minut
Uyga vazifa	2 minut

### **Darsning borishi**

#### **I. Tashkiliy qism:**

O'quvchilar bilan salomlashish, sinf tozaligiga e'tibor qaratish, o'quvchilarni darsga tayyorlash, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O'zbekistonda va dunyoda sodir bo'layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o'quvchilar orqali) tanishtirish.

#### **Darsning jihozlanishi va darsga hozirlik ko'rish**

- 1.Darslik, mavzuga oid rasmlar
- 2.Dunyo va O'zbekiston xaritasi
- 3.Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar)
4. Sinf xonasini guruhlarga ishlashga tayyorlash (sinf o'quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhga bo'lib, stollarni qo'yib chiqish)

#### **Dars turi: Aralash**

Dars jarayonida qo'llaniluvchi metodlar: "**Baxtli tasodif**" o'yini, "**Ha-yo'q**" mashqi

#### **Sinfni guruuhlar bilan ishlashga tayyorlash**

O'quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga "**Baxtli tasodif**" o'yini, "**Ha-yo'q**" mashqi haqida tushunchalar beriladi.

#### **II. O'rganilgan mavzuni so'rab baholash**

O'quvchilar quyidagi "**Baxtli tasodif**" bilet savollarini olib javob beradilar:

(Bunda 5 ta bilet savollari oldindan tayyorlangan bo'ladi, 3 ta bilet savollari to'liq yozilgan, bittasida "**Baxtli tasodif**" - 5 baho deb yoziladi, o'quvchiga o'z-o'zidan 5 baho quyiladi, bitta biletga o'tilgan mavzuni to'liq so'rab baholash deya yoziladi, o'quvchi to'liq javob beradi....)  
(o'qituvchi biletlarni yoki undagi savollarni ko'paytirishi mumkin)

#### **III. Yangi dars mazmuni (8-sinf Xiva xonligining tashkil topishi):**

O'qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi

Ma'ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

- ❖ Xiva xonligining tashkil topishi
- ❖ XVI asrda Xiva xonligi iqtisodiy hayoti
- ❖ Xiva va Buxoro xonliklari munosabatlari

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun**

##### **1) Savollar**

1. Xiva xonligining tashkil topishi haqida so‘zlab bering.
2. XVI asrda Xiva xonligi iqtisodiy hayotida ro‘y bergan inqiroz sabablarini qayd eting.
3. Xiva va Buxoro xonliklari munosabatlarida dushmanlik kayfiyatni kuchli bo‘lganligini misollar yordamida asoslab bering.

## **2. Ha-yo‘q mashqi**

O‘qituvchi bir nima (raqam, predmet, adabiy yoki tarixiy qahramon va sh.o‘.) ni o‘ylab qo‘yadi. O‘quvchilar esa unga savol berib, u nimani o‘ylab qo‘yanligini topishga harakat qiladilar. O‘qituvchi ularning savollariga faqat “Ha”, “Yo‘q”, “Ham ha, ham yo‘q” so‘zlar bilan javob beradi.

Savol nojo‘ya berilgan yoki o‘qituvchi didaktika maqsadlaridan kelib chiqib, savolga javob berishni xohlamaydigan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Shunda u oldindan belgilangan ishora bilan javob berishdan voz kechadi.

Mashq yakunlanganidan so‘ng albatta qanday savollar kuchli, qandaylari kuchsiz va nima uchunligi yuzasidan qisqa muhokama o‘tkazish shart.

Mashqning maqsadi – bolalarni savollarni tartibsiz berishga urintirmasmasdan, ularni izlash strategiyasini ishlab chiqishga o‘rgatishdan iboratdir.

O‘quvchilarda faol bilim olish nuqtai nazarini mustahkamlaydi va quyidagilarga o‘rgatadi:

- Tarqoq holatdagi faktlarni yagona bir shaklga bog‘lash;
- Mayjud bo‘lgan ma‘lumotlarni tizimlashtirish;
- O‘quvchilarni tinglash va fikrlarini e’tiborga olish.

## **V. Dars yakunlanadi va baholanadi**

O‘quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni o‘qituvchi baholash uchun o‘quvchilarning uyga berilgan vazifalarni to‘g‘ri bajarganligi, darsdagi faol ishtiroti e’tiborga olinib baholanadi.

## **VI. Uyga vazifa**

Yangi mavzuni darslik bo‘yicha o‘qib, mavzu oxiridagi savollarga javob tayyorlash.

### **(MA`RUZA) 20- §. Xiva xonligining tashkil topishi**

Xorazm hududida jami 20 ga yaqin o‘zbek to ishi qabilasi istiqomat qilar edi. Ular orasida *qo‘ng‘irot, mang% nayman, qipchoq va qiyot* qabilalari ko‘p sonli va eng kuchli qabilalar bo‘lgan. Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazm temuriy Sulton Husayn Boyqaro boshliq Xuroson davlati tasarrufida edi. Xorazmda qo‘ng‘irot qabilasidan chiqqan Chin So‘fi hokim edi. U rasman Husayn Boyqaro noyibi hisoblanardi. 1505-yili Shayboniyxon, 1510-yilda esa Eron hukmdori shoh Ismoil Xorazmni bosib oldilar. Biroq shoh Ismoilning hukmronligi uzoqqa bormadi. Vazir shahri qozisi Umar qozi yetakchiligidagi safaviylar hukmronligiga qarshi harakat boshlanadi. Xorazmnning mo‘tabar zotlari mamlakat taxtiga Shaybon avlodlaridan Berka Sultonning o‘g‘li Elbarsxonni o‘tqizishga qaror qildilar. U bu davrda Dashti Qipchoqda edi. Berka Sultonning xonadoni Shayboniyxon xonadoni bilan garchand bir shajaradan bo‘lsa-da, ular o‘zaro dushmanlik munosabatida edilar. 1480-yilda o‘zaro toj-u taxt uchun kurashda Muhammad Shayboniyxon tomonidan o‘z bobokaloni Shaybonxon avlodiga mansub Berka Sultonning o‘ldirilganligi buning sabablaridan biri edi. Xorazmnning erksevar xalqi Elbarsxon yetakchiligidagi 1511-1512-yillarda Eron qo‘sishinlarini mamlakatdan butunlay quvib chiqarishga muvaffaq bo‘ldi. Shu tariqa 1511-yilda Xorazm mustaqilligi tiklandi va bu davlat endi Xiva xonligi deb atala boshlandi. Bu davlat asoschisi ham shayboniylar vakil lari bo‘ldi. Xiva xonligida shayboniylar hukmronligi 1770-yilgacha davom etdi.

Elbarsxon davrida mamlakat poytaxti Vazir shahridan Urganch shahriga ko‘chirildi. Elbarsxon Vazir shahrini Eron qo‘shinlaridan ozod etgach, bu g‘alaba sharafiga o‘z o‘g‘illari nomiga „g‘oz“ laqabini qo‘shib aytislmi buyurgan. Elbarsxon davrida Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko‘pgina qabilalaming ko‘chib kelishi yanada kuchaydi. Natijada xonlik hukmdoriarining ijtimoiy tayanchi mustahkamlandi. Bu omil Xiva hukmdoriga xonlik hududini qo‘sli davlatlar hisobiga kengaytirib olish imkonini berdi. Chunonchi, Elbarsxonning 1516-yilgacha bo‘lgan hukmronlik davrida Shimoliy Xuroson, Saraxs, Oral va Mang‘ishloq egallandi.

. . Movarounnahrdagi Shayboniyalar davlati kichik mulklarga boliiigan. Xiva xonligining aholisi etnik, madaniy va til jihatdan bir-biridan keskin farq qiluvchi uch guruhga bo‘lingan:

- 1) qadimiy xorazmliklaming bevosita avlodlari;
- 2) turkman qabilalari;
- 3) Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko‘chib kelgan qabilalar.

Ayni paytda ular markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaslikka, mustaqillikka intihshgan. Bu hoi o‘zaro nizolami keltirib chiqargan. Xiva xonligida yirik o‘zbek qabilalarining boshliqlari amalda mustaqil mulk egalariga aylangan. Ular xonlikning butun ijtimoiysiyo hayotiga hal etuvchi ta’sir ko‘rsatib kelganlar. XVI asrda Xiva xonligi iqtisodiy inqirozga duchor bo‘ldi. Buning asosiy sabablaridan biri — Amudaryoning o‘z o‘zanini o‘zgartirib, 1573-yildan boshlab Kaspiy dengiziga oqmay qo‘yanligi bo‘ldi. Daryo 15 yil davomida Oral dengizi yo‘nalishiga burildiki, natijada eski o‘zan atrofidagi yerlar cho‘lga aylandi. Aholi esa xonlikning boshqa hududlariga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lgan. Bundan tashqari, Xiva xonligining XVI asrda ikki marta Buxoro xonligi tomonidan bosib olinishi, shuningdek, o‘zaro qabilaviy urushlar, og‘ir soliqlar hamda turli to‘lov va jarimlar mamlakat ahohsini xonavayron qilgan. Bu hol savdo-sotiqqa katta putur yetkazgan.

Markaziy Osiyoda dastlab tashkil topgan, doimo o‘zaro dushmanlik munosabatlari hukm surgan. Buning asosiy sababi — xonliklarning doimo bosqinchilik urushlari hisobiga o‘z hududlarini kengaytirishga urinishlari bo‘lsa, ikkinchisi, Buxoro va Xiva xonligida hukmron sulolalaming bir-biriga g‘anim bo‘lib qolgan xonadonlarga mansubligi edi.

Xivani Buxoroga bo‘ysundirish harakati Ubaydullaxon davrida boshlandi. Ubaydullaxon 1537—1538-yillarda Xorazmga hujum qilib, Xiva xonligini Buxoroga bo‘ysundiradi. Xiva xoni Avaneslixon (1525—1538) qo‘shinlari tor-mor keltirildi, xonning o‘zi esa o‘ldirildi. Ubaydullaxon o‘g‘li Abdulazizni Xorazmga noib etib tayinladi. Biroq bu ahvol uzoq davom etmadi. Mahalliy xalq Avaneslixon avlodlari boshchiligidagi mamlakatni ozod etdi. Ubaydullaxon yuborgan q o‘shin ham tor-mor keltirildi. Abdulazizzon Urganchdan Buxoroga qocliib ketadi. Keyingi hukmdorlar davrida ham bu ikki xonlik o‘rtasidagi adovat va dushmanlik to‘xtamadi. Jumladan, Buxoro xoni Abdullaxon II 1593-yili Xiva xonligini bosib oladi. Xiva xoni Hojimxon (1558—1602) oilasi bilan Eron shohi Abbas huzuriga qochishga majbur bo‘ladi. 1595-yilda Xiva sultonlari xonlikning yirik shaharlarini egallaydilar. Lekin shu yili Abdullaxon II Xiva xonligi ustiga yana qo‘shin tortib keladi. Hoji Muhammad (Hojimxon) yana Eronga qochadi. Faqatgina 1598-yili Abdullaxonning vafotidan keyin Buxoro xonligida boshlangan o‘zaro toj-u taxt uchun kurashlar oqibatida Hojimxon Xiva xonhgi taxtini qayta egallahsga va o‘z hokimiyatini mustahkamlab olishga erishadi. Bu davrda Xiva xonligi Mang‘ishloq, Bolxon tog‘lari, Dehiston, 0‘zboy, Shimoliy Xuroson hududlarini ham o‘z tasarrufiga olgan edi.

- 1511-yilda Markaziy Osiyoda yana bir davlat — Xiva xonligi tashkil topdi.
- Xiva xonligining asoschisi Dashti Qipchoqlik Elbarsxon edi.
- Abdullaxon II davrida Xiva xonligi 2 marta (1593-va 1595-yilda) Buxoroga bo‘ysundirilgan.

**Noib** (arabcha — o‘rinbosar, yordamchi) — tobe o‘lka yoki viloyat hokimi.

**G‘oz** — musulmon haq dini uchun kurashuvchi.

## O'qituvchi: K. Polvonov

FAN: Jahon tarixi

SINF: 8-sinf

MAVZU: Fransiyada Birinchi imperiya va uning halokati

### TEXNOLOGIK XARITA

MAVZU	8-sinf Fransiyada Birinchi imperiya va uning halokati
Maqsad, vazifalar	<p><b>Maqsad:</b> O'quvchilarga Fransiyada Birinchi imperiya va uning halokati to'g'risida bilimlar berish</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish.</li> <li>- mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimini baholash.</li> </ul>
O'quv jarayonining mazmuni	Fransiyada Birinchi imperiya va uning halokati to'g'risida bilimlar berish
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p><b>Uslub:</b> Og'zaki bayon qilish, "Aytchi menga" o'yini, "Tushunchalar mazmuni metodi.</p> <p><b>Shakl:</b> suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash.</p> <p><b>Vosita:</b> Tarqatma materiallar: matnlar, portretlar.</p> <p><b>Usul:</b> Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida.</p> <p><b>Nazorat:</b> Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.</p>
Kutiladigan natijalar	<p>O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida o'quvchilarни baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol beri shva savollarga javob berishga o'rgatadi.</p> <p>O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyatini kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholay oladi.</p>
Kelgusidagi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	<p>O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p>O'quvchi: matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallarni topadi, ularni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish</p>

	malakasini hosil qiladi.
--	--------------------------

## **DARSNING BLOK CHIZMASI**

	Dars bosqichlari	Vaqti
	Tashkiliy qism	3 minut
	O‘tilgan mavzuni takrorlash	12 minut
	Yangi mavzuni guruuhlar bilan ishlash	15 minut
	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
	Baholash	3 minut
	Uyga vazifa	2 minut

### **Darsning borishi**

#### **I. Tashkiliy qism:**

O‘quvchilar bilan salomlashish, sinf tozaligiga e’tibor qaratish, o‘quvchilarni darsga tayyorlash, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O‘zbekistonda va dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o‘quvchilar orqali) tanishtirish.

#### **Darsning jihozlanishi va darsga hozirlik ko‘rish**

- 1.Darslik, mavzuga oid rasmlar
- 2.Dunyo va O‘zbekiston xaritasi
- 3.Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar)
4. Sinf xonasini guruhlarga ishlashga tayyorlash (sinf o‘quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhga bo‘lib, stollarni qo‘yib chiqish)

### **Dars turi: Aralash**

Dars jarayonida qo‘llaniluvchi metodlar: “**Aytchi menga**” o‘yini, “**Tushunchalar mazmuni metodi**.

### **Sinfni guruuhlar bilan ishlashga tayyorlash**

O‘quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga “**Aytchi menga**” o‘yini, “**Tushunchalar mazmuni metodi** haqida tushunchalar beriladi.

### **II. O‘rganilgan mavzuni so‘rab baholash**

O‘quvchilar quyidagi “**Aytchi menga**” o‘yini orqali baholanadi:

1. Barcha ishtirokchilarga tarqatuv varag‘i beriladi va bu varaqda aks ettirilgan savollardan biri o‘ng tomondagi qo‘shti ishtirokchiga beriladi. U bir daqiqa davomida berilgan savolga javob beradi. Keyin javob bergen ishtirokchi varaqdagi savollardan birini tanlab, o‘zining o‘ng tomondagi qo‘shtisiga beradi. Bu jarayon shu tariqa guruhning barcha ishtirokchilari savollarga javob berib bo‘limgunlarigacha davom etadi.
2. Ishtirokchilar savol tanlab, guruhning istalgan o‘quvchisiga (navbatma-navbat) savol beradilar. Javob to‘liq bo‘lishi lozim. Javob berishga 1 daqiqa ajratiladi.

3. Ishtirokchilar o‘zлari javob berishni xohlaydigan savolni tanlaydilar. So‘ng bir daqiqa davomida tanlangan savolga navbatma-navbat javob beradilar.

O‘quvchilarda tanlash imkoniyati mayjud bo‘lishi uchun savollar soni kamida 12ta bo‘lishi kerak. O‘rtal hisobda 12-14 daqiqa sarflanadigan mashqni bajarib bo‘lganingizdan keyin muhokama o‘tkaziladi:

- Mashqni bajarish vaqtida nimalarni his qildingiz?
- Qanday yangilikni bilib oldingiz?
- Nimalarga o‘rgandingiz?
- Sizni mashqni bajarish vaqtida nima hayratlantirdi (har bir bosqichda)?
- Va hokazo, o‘qituvchining ixtiyoriga ko‘ra.

Mashqning ikkinchi bosqichi o‘quvchilarga o‘z bilimlarini to‘ldirish, o‘rganilgan materialni aniqlashtirishga imkon yaratadi. Uning uchinchi bosqichi o‘quvchilarga o‘rganilayotgan material bo‘yicha o‘z bilimlarini namoyish etish va baholashga yordam beradi.

### **III. Yangi dars mazmuni (8-sinf Fransiyada Birinchi imperiya va uning halokati):**

O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi

Ma’ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

- ❖ Fransiyada Birinchi imperiyasi.
- ❖ Burbonlar sulolasi hokimiyatining tiklanishi.
- ❖ Vena Kongressi.
- ❖ «Muqaddas Ittifoq».

### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun**

#### **1) Savollar (Tezlik bilan o‘quvchilar javob beradilar)**

1. Fransiyada Birinchi imperiya qay tariqa vujudga keldi?
2. «Birinchi imperiya halokati sabablari» matn tezisini tayyorlang.
3. Fansiyada Burbonlar hokimiyati qay tariqa tiklandi?
4. «Vaterloo jangi» haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Vena Kongressi qanday masalalami hal etdi?
6. «Muqaddas Ittifoq» qanday maqsadni k o‘zlab tuzildi?

#### **2) “Tushunchalar mazmuni” metodidan foydalanish**

T/r	<b>Tushunchalar</b>	<b>Mazmuni</b>
1	Kontributsiya	(lotincha) - urushda yetkazilgan zarar o‘rnini qoplash uchun m a g ‘lub davlat tomonidan to ‘lanadigan to ‘lov
2	«Muqaddas Ittifoq».	Yevropada kelgusida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan inqiloblarga qarshi birgalikda kurash maqsadida uch davlat - Rossiya, Avstriya va Prussiya monarxlari ittifoq tuzdilar. U tarixga «Muqaddas Ittifoq» nomi bilan kirdi.
3	.....	
4		
5		

## **V. Dars yakunlanadi va baholanadi**

O‘quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni o‘qituvchi baholash uchun o‘quvchilarning uyga berilgan vazifalarni to‘g‘ri bajarganligi, darsdagi faol ishtiroki e’tiborga olinib baholanadi.

## **VI. Uyga vazifa**

Yangi mavzuni darslik bo‘yicha o‘qib, mavzu oxiridagi savollarga javob tayyorlash.

### **25- §. Fransiyada Birinchi imperiya va uning halokati**

Fransiyada Birinchi imperiY. 1799- yilgi davlat to ‘ntarishidan so ‘ng Fransiyaning Birinchi konsuliga aylangan Napoleon Bonapart endi yakka hokimlikka intila boshladi. 1802- yilda u o‘zining umrbod konsul deb e’lon qilinishiga erishdi. 1804- yilda esa u Senatdan o ‘zini «Fransuzlar imperatori Napoleon I» deb e’ Ion qilinishini talab etdi va unga erishdi. Shu tariqa, Fransiyada monarxiya qayta tiklandi. Biroq bu monarxiya dvoryanlarga emas, yirik burjuaziyaga, qo ‘shin va davlat amaldorlariga tayanuvchi harbiy monarxiya edi.

**Istilochilik urushlari.** N. Bonapart katta istilochilik umshlaii ohb bordi. Chunonchi, 1805-yilda Avstriya poytaxti Vena ishg ‘ol etildi. 1806- yilda Pmssiya poytaxti Berlinni egalladi. O‘z g‘alabalaridan ruhlangan Napoleon endi Buyuk Britaniyaga nisbatan qit’a qamali e’lon qilinganligi haqidagi dekretni imzoladi. Unga ko‘ra, Napoleonga qaram barcha davlatlaming Buyuk Britaniya bilan savdo-sotiq qilishi taqiqlandi. Napoleonning maqsadi shu yo‘l bilan Buyuk Britaniyani bo‘g‘ib tashlash edi. Qit’a qamali Fransiyani Yevropa va jahon hukmronligi uchun o ‘z tinkasini quritadigan urushga duchor etdi. Rossiya Fransiyaning Yevropadagi barcha g‘alabalarini tan olishga va 1807-yilda Napoleon bilan tinchlik hamda ittifoq to‘g ‘risida shartnomaga imzolashga majbur bo‘ldi. Bu shartnomaga tarixga «Tilzit shartnomasi » nomi bilan kirdi. Shartnomaga ko‘ra, Rossiya Buyuk Britaniya bilan aloqani uzish va q it’a qamaliga qo‘shilish majburiyatini oldi.

**Im p e r i y a n i n g z a i f l a s h u v i.** Deyarli butun Yevropani b o ‘ysundirgan Napoleon Buyuk Britaniya va Rossiyani bo‘ysundira olmadi. Buyuk Britaniya harbiy flotining g ‘oyatda qudratliligi Napoleonga qit’a qamali siyosatidan k o ‘zlangan maqsadiga erishish imkonini beimadi. Rossiya o ‘z mustaqilligini saqlab qoldi. Qit’a qamali siyosatiga qo‘shilgan bo‘lsada, amalda shartnomani bajarmadi. AQSH kemalarida o ‘z tovarlarini Buyuk Britaniyaga yuborishni davom ettirdi. Fransiya aholisi ham uzlusiz urushlardan charchadi. Ming-minglab navqiron yigitlarning halok bo‘lishi, soliqlarning ortishi, qit’a qamalidan k o ‘rilayotgan iqtisodiy zarar Napoleon siyosatidan norozilikni kuchaytirib bordi. Ayni paytda bosib olingan mamlakatlarda bosqinchilarga qarshi milliy ozodlik kurashi kuchaydi. Napoleonga bunday norozilikni bostirish uchun katta bir g‘olibona urush kerak edi. Shuning uchun ham u Rossiyaga qarshi urush qilishni va unda ga‘laba qozonishni rejalashtirdi. Busiz butun Yevropani itoat ettirishdan iborat bo‘lgan maqsadi ham amalga oshmas edi.

**Rossiya-Fransiya o‘rtasidagi 1812- yil urushi.** 1812- yilning 24- iyunida Napoleon armiyasi Rossiyaga hujum boshladi. Bu urush Rossiya uchun milliy mustaqillik urushi edi. Ikki davlat qo‘shini o ‘rtasidagi hal qiluvchi jang 1812- yilning 7- sentabrida Moskva yaqinidagi Borodino qishlog‘ida bo ‘lib o ‘tdi. Har ikki tomon ham ko ‘plab qurbanlar berdi. Rossiya-Fransiya urushida Fransiya mag‘lubiyatga uchradi. Rus qo‘shining matonati, qahraton sovuq va ochlik bosqinchi qo‘shining halokatini muqarrar qilib qo‘ydi. Oqibatda Napoleonning «Buyuk qo ‘shin»i bu buyuk talofatdan so ‘ng o ‘zini qayta tiklab ololmadi. Endi Napoleon imperiyasining halokati muqarrar bo‘lib qoldi.

**Imperianing qulashi.** Rossiya, Buyuk Britaniya, Prussiya, Avstriya va boshqa davlatlardan iborat Yevropaning ittifoqchi davlatlari hamda Fransiya o ‘rtasidagi hal qiluvchi jang 1813- yil

oktabrda Leypsig ostonasidabo‘lib o ‘tdi vabu jang tarixga «Xalqlar janggi» nomi bilan kirdi. Leypsig jangida Napoleonning qo ‘shini tor-mor etildi. 1814- yilda ittifoqchi davlatlar armiyasi Parij shahriga kirib keldi. Napoleon taxtdan voz kechishga majbur bo ‘ldi. Ittifoqchilar uni Elba oroliga surgun qildilar. Shu tariqa imperiya quladi.

**Burbonlar sulolasi hokimiyatining tiklanishi.** Ittifoqchi davlatlar Fransiyada Burbonlar sulolasi hokimiyatini tiklashga qaror qildilar. Inqilob yillari qatl etilgan qiroq Lyudovik XVI ning ukasi Lyudovik XVIII Senatning qarori bilan taxtga o ‘tqazildi. Lekin endi bu monarxiya avvalgidek mutlaq monarxiya emas edi. U monarxiyani tiklashning iloji ham yo‘q edi. Chunki jamiyat hayotida kapitalistik munosabatlar har tomonlama chuqur ildiz otib ulgurgan edi. Shuning uchun ham qiroq konstitutsiya e’lon qilishga majbur bo ‘ldi. Ittifoqchilar Fransiya bilan sulh shartnomasini imzoladilar. Unga ko‘ra, Fransiya Napoleon davrida bosib olgan barcha hududlardan mahrum etildi. Ayni paytda mamlakatda ichki vaziyat ham murakkablashib bordi. Bunga eski feudal tartiblar tarafdarlarining mutlaq monarxiyani tiklashni, shuningdek, qo‘llaridan ketgan mol-mulklarini qaytarib berishni talab qilishlari sabab bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, burjuaziya va dehqonlami tashvishga solib qo‘ydi. Bundan tashqari, Napoleon davrida xizmat qilgan zabitlaming va davlat xizmatchisining ishdan bo ‘shaffishi qo ‘shinda va butun mamlakatda norozilik keltirib chiqardi. Vaziyatdan surgundagi Napoleon foydalanib qohshga qaror qildi. Esqi gvardiya va o ‘zi tug ‘ilib o‘sgan korsikaliklardan tuzilgan harbiy qismhamonuning tarafidaedi. Napoleon 1815- yilning mart oyida Elbadan Fransiyaning janubiga yetib keldi. Qirol Lyudovik XVIII ning Napoleonga qarshi yuborgan 30 ming kishilik qo‘shini ham Napoleon tomoniga o‘tib ketdi. Napoleon 20- mart kuni Parij shahrini egallab, yana imperatorlik taxtiga o‘tirdi. Biroq ubu safar hokimiyatni atigi 100 kun egallab turdi, xolos. Napoleonga qarshi ittifoqchi davlatlar (Buyuk Britaniya, Prussiya va boshqalar) juda katta armiyaqo‘ya oldi. Ikki o ‘rtada 1815- yilning 18-iyunida bo ‘lib o ‘tgan hal qiluvchi jang (hozirgi Belgiya davlati hududidagi) Waterloo qishlog‘idabo‘lib o‘tdi. Shu tufayhbu jang tarixga «Waterloo jangi» nomi bilan kirgan. Jangda Napoleon qo ‘shini butunlay tor-mor etildi. Asir olingan Napoleon endi uzoq Muqaddas Yelena orohga surgun qilindi va u shu yerda 1821 - yilda vafot etdi. Fransiyada Burbonlar hokimiyati yana qayta tiklandi.

**Vena Kongressi.** G‘olib davlatlar Kongress chaqirdilar. Bu Kongress 1814- yilda Avstriyaning poytaxti Vena shahrida bo ‘lib o ‘tdi. Kongressning asosiy maqsadi - Yevropani g‘oliblar manfaati yo ‘lida qayta taqsimlash edi. 1815- yilda Yevropaning 8 davlati: Buyuk Britaniya, Avstriya, Prussiya, Rossiya, Ispaniya, Shvetsiya, Portugahya va Fransiya Kongressning yakunlovchi hujjatini imzoladilar. Buyuk Britaniyaning asosiy maqsadi, Fransiyaning zaiflashuviga erishish, o ‘zining dengizdagi va mustamlakalar bosib olishdagi ustunligini saqlab qolish edi. U bunga erishdi. Ayni paytda Malta, Seylon orollariga, Afnkaning janubidagi Kara yeriga ega bo ‘lib oldi. Rossiya Polshaning katta qismiga ega bo‘ldi. 300 dan ortiq mayda davlatlarga boliinib ketgan Germaniya o ‘mida 39 ta davlatdan iborat Germaniya ittifoqi tuzildi. Bu ittifoqda Avstiiyaning yetakchi roli e’tirof etildi. Reyn viloyati, Vestfaliya Pmssiyaga qo‘shib berildi. Polshaning g‘arbiy yerkari ham Pmssiya mulki deb tan olindi. Avstriya Shimoliy Itahyada mustahkamlanib oldi. Belgiya Gollandiyaga qo‘shib berildi. Shveytsariyaning mustaqilhg‘i tiklandi va u abadiy betaraf davlat maqomiga ega bo ‘ldi. Fransiya hududi o ‘zining avvalgi chegarasigacha qisqartirildi. Unga 700 mln frank oltin hisobida *kontributsiya* to‘lash majburiyati yuklandi. Fransiya bu konhibutsiyani to ‘lagunga qadar uning shimohy qismi ittifoqchi lar qo ‘shini tomonidan ishg ‘ol qilinadigan bo ‘ldi. Fransiya ikkinchi darajali davlat maqomiga tushib qoldi. Shu taiiqa Vena Kongressi Yevropa siyosiy xaritasini kuch bilan o ‘zgartirib tashladи. Ayni paytda, Vena Kongressi qora tanh ullar savdosini taqilovchi dcklaratsiya ham qabul qildi.

**«Muqaddas Ittifoq».** Yevropada kelgusida ro ‘y berishi mumkin bo‘lgan inqiloblarga qarshi birgalikda kurash maqsadida uch davlat - Rossiya, Avstriya va Prussiya monarxlari ittifoq tuzdilar. U tarixga «Muqaddas Ittifoq» nomi bilan kirdi.

## O'qituvchi K. Polvonov

FAN: O`zbekiston tarixi

SINF: 9-sinf

MAVZU: Toshkentda «Vabo isyonii»

### TEXNOLOGIK XARITA

MAVZU	9-sinf Toshkentda «Vabo isyonii»
Maqsad, vazifalar	<p><b>Maqsad:</b> O'quvchilarga 1892 yil Toshkentda bo'lib o'tgan «Vabo isyonii» to'g'risida bilimlar berish</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>- o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish.</li><li>- mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimini baholash.</li></ul>
O'quv jarayonining mazmuni	1892 yil Toshkentda bo'lib o'tgan «Vabo isyonii»; qo'zg'olonning sabablari, boshlanishi hamda bostirilishi to'g'risida bilimlar berish
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p><b>Uslub:</b> Og'zaki bayon qilish, “Baxtli tasodif” o'yini, “Beshta to'g'ri, bitta noto'g'ri” o'yini “BBB” texnologiyasi.</p> <p><b>Shakl:</b> suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhrilar va jamoada ishlash.</p> <p><b>Vosita:</b> Tarqatma materiallar: matnlar, portretlar.</p> <p><b>Usul:</b> Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida.</p> <p><b>Nazorat:</b> Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.</p>
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida o'quvchilarни baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol beri shva savollarga javob berishga o'rgatadi.
Kelgusidagi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	O'qituvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishslashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyatni kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholay oladi.
	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishslash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish.
	O'quvchi: matn bilan mustaqil ishslashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish

	malakasini hosil qiladi.
--	--------------------------

## **DARSNING BLOK CHIZMASI**

	Dars bosqichlari	Vaqti
	Tashkiliy qism	3 minut
	O'tilgan mavzuni takrorlash	12 minut
	Yangi mavzuni guruuhlar bilan ishlash	15 minut
	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
	Baholash	3 minut
	Uyga vazifa	2 minut

### **Darsning borishi**

#### **I. Tashkiliy qism:**

O'quvchilar bilan salomlashish, sinf tozaligiga e'tibor qaratish, o'quvchilarni darsga tayyorlash, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O'zbekistonda va dunyoda sodir bo'layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o'quvchilar orqali) tanishtirish.

#### **Darsning jihozlanishi va darsga hozirlik ko'rish**

- 1.Darslik, mavzuga oid rasmlar
- 2.Dunyo va O'zbekiston xaritasi
- 3.Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar)
4. Sinf xonasini guruhlarga ishlashga tayyorlash (sinf o'quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhgaga bo'lib, stollarni qo'yib chiqish)

#### **Dars turi: Aralash**

Dars jarayonida qo'llaniluvchi metodlar: "**Baxtli tasodif**" o'yini, "**Beshta to`g`ri, bitta noto`g`ri**" o'yini "**BBB**" texnologiyasi.

#### **Sinfni guruuhlar bilan ishlashga tayyorlash**

O'quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga "**Baxtli tasodif**" o'yini, "**Beshta to`g`ri, bitta noto`g`ri**" o'yini "**BBB**" texnologiyasi haqida tushunchalar beriladi.

#### **II. O'rganilgan mavzuni ("Turkistonda milliy-ozodlik harakatlarining boshlanishi va uning sabablari") so'rab baholash**

O'quvchilar quyidagi "**Baxtli tasodif**" bilet savollarini olib javob beradilar:

##### **Bilet № 1**

1. Mustamlakachilik jabr-zulmining kuchayishi asosan qanday ko'rinishlarda yaqqol ko'zga tashlanadi?
2. Mustamlakachi hukumatning Turkistonda olib borgan siyosatining maqsad va vazifalari

nimadan iborat edi?

Bilet № 2

1. Xalq hayotining qashshoqlashishiga qanday omillar sabab bo`ldi?
2. Nima uchun xalq harakatlari 70-yillar oxirida aynan Farg‘ona vodiysida kuchaydi?

Bilet № 3

(O`tilgan mavzuni to`liq so`rab baholash)

Bilet № 4

“Baxtli tasodif”- 5 baho

(o`qituvchi biletlarni yoki undagi savollarni ko`paytirishi mumkin)

**III. Yangi dars mazmuni (9-sinf Toshkentda «Vabo isyonii»):**

O`qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi

Ma’ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

- ❖ Qo‘zg‘olonning boshlanish sabablari.
- ❖ Qo‘zg‘olonning boshlanishi.
- ❖ Qo‘zg‘olon bostirilgandan keyingi chora-tadbirlar.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun**

**1) Savollar (Tezlik bilan o`quvchilar javob beradilar)**

1. Mahalliy aholi huquqlarining cheklanishini nimalarda ko‘rasiz?
2. Toshkent qo‘zg‘olonining boshlanish sabablarini ayting va milliy qadriyatlarga nimalar kirishini izohlang.
3. Qo‘zg‘olon qachon boshlandi? Mustamlakachilar va ularga xizmat qiluvchilaming qaysi harakati xalqni tug‘yonga keltirdi?
4. Qo‘zg‘olon bostirilgandan keyin qanday tadbirlar amalga oshirildi?

**2) “Beshta to`g`ri, bitta noto`g`ri” o`yini** (O`qituvchi kartochkalarni oldindan tayyorlab kelishi kerak)

**1. “Beshta to`g`ri, bitta noto`g`ri” o`yini**

T/r	Ma`lumotlar	To`g`ri yoki noto`g`ri	Kalit so`z
1	1892 yil mart oyida Afg`onistonda vabo kasalligi tarqaldi		Kitob
2	Toshkentda qo`zg`olon 1892 yil 24 iyunda boshlandi		Suv
3	Shahar oqsoqoli Muhammad Yoqub edi		Osmon
4	Qo`zg`olonchilar taxminan 200 kishidan ortiq edi		Atirgul
5	Toshkent shahar hokimi S. Putinsev bo`lgan		Daftар
6	Vabo kasalligi 1892 yil, 7-iyunda Toshkentda qayd etildi		Handalak

**Izoh:** Noto`g`ri deb topilgan qatordagi kalit so`zni ayting

**2. “Beshta to`g`ri, bitta noto`g`ri” o`yini**

T/r	Ma`lumotlar	To`g`ri yoki noto`g`ri	Kalit so`z
1	Vabo isyon - toshotar voqeasi deb ham ataladi		Kitob
2	Toshkentda qo`zg`olon 1892 yil 24 iyunda boshlandi		Suv
3	Shahar oqsoqoli Muhammad Yoqub edi		Osmon
4	Qo`zg`olonchilar taxminan 300 kishidan ortiq edi		Lola
5	Toshkent shahar hokimi S. Putinsev bo`lgan		Daftar
6	Vabo kasalligi 1892 yil, 7-iyunda Toshkentda qayd etildi		Handalak

**Izoh:** Noto`g`ri deb topilgan qatordagi kalit so`zni ayting

(o`qituvchi kartochkalar sonini ko`paytirishi mumkin)

**V. Dars yakunlanadi va baholanadi**

O`quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni o`qituvchi baholash uchun o`quvchilarning uyga berilgan vazifalarni to`g`ri bajarganligi, darsdagi faol ishtiroki e'tiborga olinib baholanadi.

**VI. Uyga vazifa**

Yangi mavzuni darslik bo`yicha o`qib, mavzu oxiridagi savollarga javob tayyorlash va “BBB” jadvalini to`ldirib kelish

(O`quvchilarga misol tariqasida tushuntirib berish kerak)

BILDIM	BILARDIM	BILMOQCHIMAN

**TOSHKENTDA «VABO ISYONI» (MA`RUZA)**

**Qo`zg`olonning boshlanish sabablari.** 1892-yilning mart oyida Afg`onistonda vabo kasalligi tarqaldi. Bahor faslining oxirlariga kelib bu kasallik Samarcand viloyatining Jizzax uezidda, 7-iyunda esa Toshkentda ham qayd qilindi. Toshkent shahar ma`muriyati kasallikka qarshi tadbirlar qatorida shahardagi 12 ta qabristonni yopib qo`ydi. Shu kasallikdan vafot etgan kishilar uchun shahardan chekka joyda maxsus qabristonlar ochish va`da qilindi. Lekin amalda shahardan tashqarida faqat bitta qabriston ochildi. Sanitariya tadbirlari xalqqa ishonarli qilib tushuntirilmadi. Bundan tashqari, shifokor-feldsherlar yetishmasligi sababli bemorlami tekshirish ko`pincha uchinchi yo to`rtinchli kuni o`tkazilar edi. Bu vaqtida aholi o`rtasida mustamlakachi ma`murlar suvni, shifokorlar esa bemorlami qasddan zaharlayotgani, murdalaming qabrlardan chiqarib tashlanayotgani to`g`risidagi mishmish gaplar tarqaldi.

Bunday vaziyat aholi orasida sarosimalik va norozilik keltirib chiqardi. Bu vaqtida Toshkentning Eski shahardagi xalqparvar, mustamlakachilarga yoqmaydigan oqsoqoli Inog`omxo`ja Umriyoxo`jayev lavozimidan chetlashtirildi. Uning o`miga tayinlangan shaxs pora olishni kuchaytirish maqsadida boshqa kasallik bilan og`rib vafot etganlami ham vabo uchun ochilgan

shahar chekkasidagi qabristonga ko‘mishni buyurdi. Xalq bunga keskin ravishda norozilik bildirdi. Bu holat qo‘zg‘olon boshlanishiga sabab bo‘ldi.

1892-yildagi norozilik harakatlarini keltirib chiqargan asosiy sabab, birinchidan, mahalliy ahолига nisbatan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mustamlakachilik jabr-zulming tobora kuchayib borayotganligi; ikkinchidan, xalq ommasining og‘ir ahvoli, hunarmand kosiblar va mardikorlaming ayovsiz ishlatilishi; uchinchidan, iste’mol mahsulotlari narxlarining to’xtovsiz oshib borishi, soliqlaming ko‘pligi; to’rtinchidan, amaldorlaming o‘z mansablarini suiiste’mol qilishi, poraxo‘rligi kabi holatlaming ko‘payib ketishi bo‘ldi.


**Qo‘zg‘olonning boshlanishi.** Tarixda «Vabo isyonи» (yoki «Toshotar voqeasi») deb nom olgan qo‘zg‘olon 1892-yilning 24-iyunida boshlandi. Dastlab mahalliy aholining noinsof, poraxo‘r amaldorlar va sudxo‘rlarga, hokimiyatni suiiste’mol qilish bilan tanilgan shahar bosh oqsoqoliga qarshi noroziligi bilan boshlandi. Bu qo‘zg‘olonchilar asosan mardikorlar va hunarmand-kosiblardan iborat edi.

Bu voqeani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan zamondoshlardan biri shunday yozgan edi: “Qo‘zg‘olonchilaming maqsadi bo‘layo’lgan kamsitishlami to‘xtatishga erishish edi. Olomon shahar boshlig‘i S.Putinsev huzuriga chora ko‘rish to‘g‘risidagi talab bilan yo‘lga tushadi. Olomonda o‘qotar yoki zamonaviy qurollar ham yo‘q bo‘lib, ular taxminan 400 kishi atrofida edi”


Eski shahar oqsoqoli Muhammad Yoqub olomondan qo‘rqib ketib, shahar boshlig‘i polkovnik S. Putinsev huzuriga yordam so‘rab bekinishga urindi. Xalq S. Putinsevdan oqsoqolni ular ixtiyoriga berishni talab qildi. S.Putinsev esa muzokara o‘miga kuch ishlatishni afzal ko‘rdi. Kuch ishlatish to‘g‘risidagi buyruqdan keyin, sabr kosasi to‘igan xalq uzoq o‘ylab o‘tirmay hokimga hujum boshladи. Uning odamlarini tor-mor etib, o‘zini kaltaklashdi. Toshkent oqsoqolining uyiga o‘t qo‘yishdi. S. Putinsev va uning mirshablarini do‘pposlagan xaloyiq mahkamani ham ostin-ustun qildi. Qo‘zg‘oloni bostirish uchun kazaklar polki va bir ro‘la askar chaqirildi.

**Qo‘zg‘olon bostirilgandan keyingi chora-tadbirlar.** O‘lka ma‘muriyatining norozilik harakatlarini shafqatsiz usullar bilan bostirishi, qo‘zg‘olon ishtirokchilarini ayovsiz jazolashi mustamlakachi hukumatning asl yuzini yaqqol ko‘rsatib berdi. Toshkentdagи qo‘zg‘olon Turkiston mustamlaka ma‘muriyatini jiddiy tashvishga soldi. U hukumatga politsiya shtatini ko‘paytirish va jazo vakolatlarini yanada kengaytirish haqida murojaat qildi. Sankt-Peterburg Turkiston general-gubematorining iltimosini qondirib, o‘lkada «mirshablik holati»ni joriy etishga ruxsat berdi. Turkiston o‘lkasida 1892-yil 18-iyundan kuchga kirgan «Harbiy holatda deb e’lon qilingan joylar haqida Qoida» joriy etildi. Mustamlakachilar uchun keng vakolatlar berildi. Turkiston general-gubematori «kuchli muhofazada» deb e’lon qilingan joylarda majlis-yig‘inlami tarqatish, savdosanoat korxonalarini yopish, matbuot organlarini taqiqlash, istalgan odamni surgun qilish, jarima solish va boshqa huquqlami oldi. «Favqulodda muhofazada» deb e ’lon qilingan joylarda esa butun hokimiyat general-gubemator yoki u tayinlagan bosh noib qo‘liga o‘tdi.

Ushbu qo‘zg‘olonning bostirilishida mustamlakachilar o‘z manfaatlari yo‘lida xalqning urfatdari, diniy e’tiqodi, milliy qadriyatlarini toptashdan ham qaytmasligini ko‘rsatdilar. Umuman olganda, mustamlakachilar har qadamda o‘zlarini o‘lkada hokim va istilochi ekanliklarini mahalliy ahолига namoyish qildi.



Toshkent ko`chasi. XIX asr



**Qo`zg`olonchilarning shahar hokimiga hujumi.**

## O'qituvchi: K. Polvonov

FAN: O`zbekiston tarixi

SINF: 9-sinf

MAVZU: XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Qoraqalpoqlarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy hayoti

### TEXNOLOGIK XARITA

<b>MAVZU</b>	<b>9-sinf</b> XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Qoraqalpoqlarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy hayoti
<b>Maqsad, vazifalar</b>	<b>Maqsad:</b> O'quvchilarga XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Qoraqalpoqlarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy hayoti to'g'risida bilimlar berish <b>Vazifalar:</b> - o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish. - mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimini baholash.
<b>O'quv jarayonining mazmuni</b>	XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Qoraqalpoqlarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy hayoti to'g'risida bilimlar berish
<b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</b>	<b>Uslub:</b> Og'zaki bayon qilish, "Alifbe" o'yini, "Davom ettir" o'yini <b>Shakl:</b> suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhrilar va jamoada ishslash. <b>Vosita:</b> Tarqatma materiallar: matnlar, portretlar. <b>Usul:</b> Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida. <b>Nazorat:</b> Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. <b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.
<b>Kutiladigan natijalar</b>	O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida o'quvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol beri shva savollarga javob berishga o'rgatadi. O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishslashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyatni kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholay oladi.
<b>Kelgusidagi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)</b>	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishslash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. O'quvchi: matn bilan mustaqil ishslashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni

	o‘rganadi. O‘z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.
--	---

## **DARSNING BLOK CHIZMASI**

Dars bosqichlari	Vaqti
Tashkiliy qism	3 minut
O‘tilgan mavzuni takrorlash	12 minut
Yangi mavzuni guruuhlar bilan ishlash	15 minut
Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
Baholash	3 minut
Uyga vazifa	2 minut

### **Darsning borishi**

#### **I. Tashkiliy qism:**

O‘quvchilar bilan salomlashish, sinf tozaligiga e’tibor qaratish, o‘quvchilarni darsga tayyorlash, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O‘zbekistonda va dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o‘quvchilar orqali) tanishtirish.

#### **Darsning jihozlanishi va darsga hozirlik ko‘rish**

- 1.Darslik, mavzuga oid rasmlar
- 2.Dunyo va O‘zbekiston xaritasi
- 3.Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar)
4. Sinf xonasini guruhlarga ishlashga tayyorlash (sinf o‘quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhgaga bo‘lib, stollarni qo‘yib chiqish)

### **Dars turi: Aralash**

Dars jarayonida qo‘llaniluvchi metodlar: “Alifbe”, “Davom ettir” o`yini

#### **Sinfni guruhlardan ishlashga tayyorlash**

O‘quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga “Alifbe”, “Davom ettir” o`yini haqida tushunchalar beriladi.

#### **II. O‘rganilgan mavzuni so`rab baholash**

##### **1. Alifbe o`yini**

Ushbu mashqni bajarish uchun har bir ishtirokchi uchun A4 formatidagi oq qog‘oz varaqlarini tayyorlab qo‘yish kerak. Boshlovchi oldindan har bir varaqda Alifbening bitta harfini yozib qo‘yadi. Agar sinfda bolalar soni Alifbedagi harflar sonidan ko‘proq bo‘lsa, bu vaziyatda biron harflar ustida ishtirokchilar juft bo‘lib ishlashlari mumkin.

##### **O‘tkazish usuli:**

- Boshlovchi har bir ishtirokchiga Alifbening biron harfi yozilgan A4 qog‘ozini beradi. So‘ng topshiriqni tushuntiradi: har bir ishtirokchi o‘zining varag‘ida berilgan mavzu bo‘yicha yozilgan harfdan boshlanadigan fikrlarni aytib beradi.....

Mashqning muhokamasi o‘tkaziladi.

**III. Yangi dars mazmuni (9-sinf XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Qoraqalpoqlarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy hayoti):**

O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi

Ma’ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

- ❖ Qoraqalpoqlar XIX asr o‘rtalarida
- ❖ Qoraqalpoqlarda urug‘chilik va qabilaviy munosabatlar
- ❖ Urf-odatlari va turmush tarzi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun**

**1) Sinov uchun “Davom ettir” o‘yini** (Mavzu yuzasidan fikr beriladi, uni davom ettirish kerak)

XIX asr boshlarida qoraqalpoqlar - ...

Qoraqalpoqlar... yashaganlar

Sudlarning ikki turi - bu ...

Qoraqalpoqlaming mashg‘ulotlari - bu ...

Qoraqalpoqlarda dehqonchilik - bu ...

O‘n to‘rt urug‘ - bu ... Beklarbegi - bu ...

Urf-odatlar - bu ...

Urug‘ biylari - ...

**V. Dars yakunlanadi va baholanadi**

O‘quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni o‘qituvchi baholash uchun o‘quvchilarning uyga berilgan vazifalarni to‘g‘ri bajarganligi, darsdagi faol ishtiroti e’tiborga olinib baholanadi.

**VI. Uyga vazifa**

Yangi mavzuni darslik bo‘yicha o‘qib, mavzu oxiridagi savollarga javob tayyorlash.

**21-§. XIX ASR IKKINCHI YARMI-XX ASR BOSHLARIDA  
QORAQALPOQLARNING HUDUDIY JOYLASHUVI  
VA IJTIMOIY HAYOTI**

Tarixan qoraqalpoqlar Ural, so‘ngra Volga bo‘ylarida, undan keyin esa Orol atrofi hamda Sirdaryoning quyi havzalari etaklarida yashab kelganlar. Ulaming ko‘chib yashashlariga ko‘proq tashqi omillar sabab bo‘ldi. Nihoyat, ular XIX asr boshlarida quyi Amudaryo havzasasi, Orolning janub va janubi g‘arb tomonlarida muqim hayot tarziga o‘ta boshladilar. Qoraqalpoqlar goh qozoqlar, goh turkmanlar hujumlariga uchrab, buning oqibatida Xiva xonligi fiqaroligiga o‘tdilar. Quyi Amudaryoning katta cho‘l va suv chiqmagan cho‘lga tutash sho‘rxok yerlarini ular o‘zlarining mashaqqatli mehnati evaziga o‘zlashtirdilar. O‘troq hayotga o‘ta boshlagach, dehqonchilik bilan shug‘ullanish qoraqalpoqlar hayotida asosiy o‘rinni egallay boshladi. Shunday bo‘lsa-da, chorvachilik ham qoraqalpoqlar hayotida yetakchi sohalardan biri bo‘lib qolaverdi. XIX asr o‘rtalarida qoraqalpoqlar Xiva xonligi hukmronligi ostida bo‘lib, ular Amudaryoning har ikkala qirg‘og‘ida va Orol dengiziga quyiladigan yerlarda yashagan. Ulaming soni o‘scha vaqtida taxminan 100 ming nafardan oshmagan. Qoraqalpoqlarga berilgan yerlar xonlik mulki sanalgan, ular bu yerlar uchun soliqlar to‘laganlar. Har xil majburiyatlamli bajarganlar. Qoraqalpoqlarda umg‘larga bo‘lingan, ularda yerdan foydalanish jamoa tariqasida kechar edi. Umg‘lar sug‘orish kanallari qazilishi uchun mas’ul bo‘lishgan. Chorva xususiy mulk bo‘lgani bois unga umg‘ tamg‘asi urilar va

jamoia yaylovlarida boqilar edi. Qoraqalpoqlarning har bir ovul aholisi bitta urug'ga mansub edi. Qoraqalpoqlarni boshqarish qulayroq bo'lishi uchun Muhammad Rahim I «Qoraqalpoq ulusi»ni shakllantirdi, barcha qoraqalpoq jamoalari ana shu ulusga kirgan. Ulusni boshqarish xonning ixtiyorida edi. Umg'lar va qabilalar ancha yirik guruhlarga birlashtirilib, ularni boshqarish uchun xon saroyining oliv amaldorlari - otaliq va beglarbegi tayinlangan. Ayrim viloyatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokimlar odatda xonning yaqin qarindoshlari bo'lishgan.

**Qoraqalpoqlarning ijtimoiy hayoti XIX asrda qoraqalpoqlar.** Qoraqalpoq ruhoniylari, eshonlari va aholining nufuzli kishilari Xiva xonlarining alohida homiyligida bo'lgan. Qozilar ham ruhoniylar nazorati ostida bo'lishgan. Qoraqalpoqlar orasida sndlaming ikki turi - qozilar sudi va biylar sudi mayjud edi. Qoraqalpoqlar XIX asming ikkinchi yarmiga kelib o'troqlashib, dehqonchilik ular hayotida asosiy o'rinni egallay boshladи. Ammo chorvachilik ham yetakchi sohalardan biri bo'lib qolaverdi. Dehqonchilik ishlari qizg'in vaqtlarida qoraqalpoq oilalari ekinzor yerlaming qulay bir joyiga o'z o'tovlarini qurib mehnat qilganlar. Ana shunday tinch mehnat bilan band bo'lgan paytlarda bosqinchilik bilan boylik orttirishni kasb qilib olgan qaroqchi guruhlar qoraqalpoqlar o'tovlariga to'satdan hujum qilar edi. Bu kutilmagan bosqin natijasida ular ko'plab mol-mulklaridan ajralardi. Bunday paytlarda yurt oqsoqollari Xiva xonidan o'zlarini himoya qilishni so'rab choparlar yo'llardilar. Qoraqalpoqlar hayotida baliqchilik va ovchilik ham muhim o'rinni egallagan. Amudaryoning bo'yalarida va Orol dengizi atrofidagi ko'llarda baliqlar serob bo'lib, ular ko'plab oila hamda umg'lar uchun asosiy tirikchilik manbayi edi. Hatto sharqdan g'arbga borayotgan savdo karvonlari tuzlangan baliqni ko'p miqdorda ana shu baliqchilik bilan shug'ullanuvchi oilalardan olib ketardilar. Qoraqalpoqlar assosan ro'zg'or uchun zarur buyumlarni tayyorlash bilan shug'ullanar edilar. Ehtiyojdan origan buyumlar esa bozorga chiqarilgan. Ular o'tovlaming atrofini o'rash uchun matolar, tuya junidan guldor namatlar to'qir edilar. Ulaming xalq amalii san'atida o'tovlar uchun o'ymakor eshiklar va boshqa uy-ro'zg'or buyumlari yasash, gilam to'qish, kashtachilik yuqori darajada rivojlangan. Bu qoraqalpoqlarda xo'jalik va turmush talablarini ta'minlab tumvchi hunarmandchilik sohalarining ham rivojlanganligini, ular ayniqsa, yog'och va suyakka ishlov berish borasida qo'li gul usta bo'lishganligini ko'rsatadi

**Qoraqalpoqlarda urug'chilik va qabilaviy munosabatlari.** XIX asrda ham qoraqalpoqlaming ayrim ovullarida urug' munosabatlari mustahkam tarzda davom etdi. Xitoy-qipchoq, mang'it va kenagas qabilalari tarkibidagi urug'lar «o'n to'rt urug1» - aris (urug') birlashmasini tashkil qilgan. Arislari orasida eng yirigi o'n to'rt urug1 bo'lsa, harbiy kuch borasida ikkinchi o'rinda shulluk va jounumi birlashtirgan aris-ko'ng'irotlar turar edi. Ularda yer-suv mulki, chorva mahsulotlari urug'niki deb hisoblansa-da, urug1 oqsoqollari, mhoniylar va biylaming ulushi katta miqdomi tashkil qilgan. Bu hoi XIX asr ikkinchi yarmida tabaqalanish jarayonining kuchayishini yanada tezlashtirdi.

**Urf-odatlari va turmush tarzi.** Har bir urug'ning o'ziga xos dafn marosimlari bo'lib, ularning qabristonlari ham alohida edi. An'ana bo'yicha qabristonga ularda shu urug'ning mashhur avliyo yoki pir darajasidagi kishilari dafn etilgan. To'y marosimlarida umg'ning barcha a'zolari ishtirok etishi shart bo'lgan. Umuman olganda, qoraqalpoqlar ko'chmanchilikdan o'troq turmushga o'tishgacha bo'lgan uzoq davrda, xalq bo'lib shakllanish jarayonida o'ziga xos ma'naviy-moddiy qadriyatlar yaratdi. Mehr-oqibat, insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan turmush tarzi shaklland. «Qirqqiz» va boshqa turkiy xalqlaming ma'naviy mulki bo'lgan turli xil dostonlarida mardlik, erksevarlik, Vatanga sadoqat, sof sevgi, or-nomus ustuvor edi. Bu g'oyalari qoraqalpoq xalqi hayotidan mustahkam o'rin oldi.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Qoraqalpoqlar XIX asr o'rtalarida qaysi hududlarda yashagan?
2. XIX asming ikkinchi yarmida qoraqalpoq urug'larini boshqarish qay tarzda amalga oshirildi?
3. Qoraqalpoqlarning asosiy mashg'ulot turlarini sanab bering.
4. Qoraqalpoq xalqining to'y va dafn marosimlari qanday bo'lgan?

## O'qituvchi: K. Polvonov

FAN: O`zbekiston tarixi

SINF: 9-sinf

MAVZU: Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati

### TEXNOLOGIK XARITA

MAVZU	9-sinf Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati
Maqsad, vazifalar	<p><b>Maqsad:</b> O'quvchilarga Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati to'g'risida bilimlar berish</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>- o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish.</li><li>- mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimini baholash.</li></ul>
O'quv jarayonining mazmuni	Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati to'g'risida bilimlar berish
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p><b>Uslub:</b> Og'zaki bayon qilish, "Baxtli tasodif" o'yini, "Davom ettir" o'yini "Maktub" usuli</p> <p><b>Shakl:</b> suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhrar va jamoada ishlash.</p> <p><b>Vosita:</b> Tarqatma materiallar: matnlar, portretlar.</p> <p><b>Usul:</b> Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida.</p> <p><b>Nazorat:</b> Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.</p>
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida o'quvchilarini baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol beri shva savollarga javob berishga o'rgatadi.
Kelgusidagi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	O'qituvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishslashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholay oladi.
	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishslash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish.
	O'quvchi: matn bilan mustaqil ishslashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish

	malakasini hosil qiladi.
--	--------------------------

## **DARSNING BLOK CHIZMASI**

	Dars bosqichlari	Vaqti
	Tashkiliy qism	3 minut
	O'tilgan mavzuni takrorlash	12 minut
	Yangi mavzuni guruuhlar bilan ishlash	15 minut
	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
	Baholash	3 minut
	Uyga vazifa	2 minut

### **Darsning borishi**

#### **I. Tashkiliy qism:**

O'quvchilar bilan salomlashish, sinf tozaligiga e'tibor qaratish, o'quvchilarni darsga tayyorlash, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O'zbekistonda va dunyoda sodir bo'layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o'quvchilar orqali) tanishtirish.

#### **Darsning jihozlanishi va darsga hozirlik ko'rish**

- 1.Darslik, mavzuga oid rasmlar
- 2.Dunyo va O'zbekiston xaritasi
- 3.Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar)
4. Sinf xonasini guruhlarga ishlashga tayyorlash (sinf o'quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhgaga bo'lib, stollarni qo'yib chiqish)

#### **Dars turi: Aralash**

Dars jarayonida qo'llaniluvchi metodlar: "**Baxtli tasodif**" o'yini, "**Davom ettir**" o'yini "**Maktub**" usuli

#### **Sinfni guruuhlar bilan ishlashga tayyorlash**

O'quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga "**Baxtli tasodif**" o'yini, "**Davom ettir**" o'yini "**Maktub**" usuli haqida tushunchalar beriladi.

#### **II. O'rganilgan mavzuni so'rab baholash**

O'quvchilar quyidagi "**Baxtli tasodif**" bilet savollarini olib javob beradilar:

(Bunda 5 ta bilet savollari oldindan tayyorlangan bo'ladi, 3 ta bilet savollari to`liq yozilgan, bittasida "Baxtli tasodif"- 5 baho deb yoziladi, o'quvchiga o`z-o`zidan 5 baho quyiladi, bitta biletga o`tilgan mavzuni to`liq so'rab baholash deya yoziladi, o'quvchi to`liq javob beradi....)  
(o'qituvchi biletlarni yoki undagi savollarni ko`paytirishi mumkin)

#### **III. Yangi dars mazmuni (9-sinf Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati):**

O'qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi

Ma'ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

- ❖ Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandalari.
- ❖ Turkiston jadidlarining faoliyati
- ❖ Taraqqiyatni ziyorolar

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun**

- 1) Sinov uchun “Davom ettir” o’yini** (Mavzu yuzasidan fikr beriladi, uni davom ettirish kerak)  
Mahmudxo‘ja Behbudiy - ...  
Abdulla Avloniy - ...  
Munavvar Qori Abdurashidxonov  
Jadid namoyandalari - ...  
Ma’rifatparvarlar - ..  
«Tarbiyayi atfol» - bu ...  
Absolyutizm - bu...

#### **V. Dars yakunlanadi va baholanadi**

O‘quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni o‘qituvchi baholash uchun o‘quvchilarning uyga berilgan vazifalarni to‘g‘ri bajarganligi, darsdagi faol ishtiroki e’tiborga olinib baholanadi.

#### **VI. Uyga vazifa**

Yangi mavzuni darslik bo‘yicha o‘qib, “Maktub” usulida mavzu qahramonidan biriga ismini yashirgan holda maktub yozib kelish topshirig‘i beriladi. Maktub o‘qiladi, o‘quvchilar **kimga** yozilganini topadi.  
Masalan,

##### **“Maktub” usuli**

*(Prezident I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asaridan)*

Assalomu alaykum. Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan muhim hayotiy omil – bu ta’lim-tarbiya tizimidir. Ma’lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta’lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni, xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi.

Bu haqda fikr yuritganda, **sizning** «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» degan chuqur ma’noli so‘zlarining eslayman. sizning bu so‘zlarining XX asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtida ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi, deb bilamiz.... .

**Javob:** Maktub A. Avloniyiga yozilgan

#### **27-§. JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARI VA ULARNING FAOLIYATI**

XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziylilarining butun bir avlodi, o‘lka ma’naviy-ma’rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatni rivojlanishiga katta hissa qo‘sghan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Toshkentda Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadreddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Farg‘ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid ChoTpon, Is’hoqxon Ibrat, Xivada Bobooxun Salimov, Polvonniyoz Hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma’rifatparvar, Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.

**Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandalari.** Turkiston jadidlarini birlashtirishda «O'rta Osiyo jadidlarining otasi» deb tan olingen Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919)ning xizmati katta boTdi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahlil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko'tarildi. Behbudiy 0 'rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yotboshchisi edi. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan shaxs hisoblanadi. Behbudiyning tashabbusi bilan o'z otasi sharafiga «Behbudiya kutubxonasi» deb atalgan kutubxona tashkil qilingan. Munavvar Qori Abdurashidxonov (1878-1931) Turkiston o'lkasida ozodlik, millat kelajagi uchun kurashgan ma'rifiy, siyosiy arbob, jadidchilik harakatining yirik namoyandalardan biri. 1904-yildan boshlab o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatlarning faol ishtirokchisi. U jadid maktablari ochilishining tashabbuskori va amaliyotchisi, milliy gazeta va jumallari asoschisi, muharriri hamda jadid teatri targ'ibotchisi boTgan. Munavvar Qori maktablar uchun «Adibi avval», «Adibi soniy», «Yer yuzi» kabi darsliklami yaratdi. Dastlabki paytlarda madaniy-ma'rifiy, keyinchalik, siyosiy-ijtimoiy xususiyat kasb etgan islohotchilik harakati faol ishtirokchilaridan biri Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug'ildi. U maktab va madrasada ta'lif olib, o'z zamonining ma'rifatli va chuqur bilim sohibiga aylandi. Abdulla Avloniy o'Tkada ta'lif, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shib, 1907-yil «Shuhrat» gazetasiga asos soldi. 0 'zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklami yaratdi. Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy kabi boshqa milliy taraqqiyatparvarlar ham ma'rifatparvarlik faoliyatini olib borib, yangi maktablar, xayriya jamiyatlari, kutubxona va kitob do'konlari ochdilar.

Turkiston jadidchilik harakatining namoyandalari ma'rifatparvar kishilar edi. Ma'rifatparvarlar keng ma'noda, bilim tarqatuvchi kishilar hisoblanadi. Siyosiy ma'noda ma'rifatparvarlik xalqni ozodlikka olib chiqish va milliy davlatchilik g'oyalalarini ilgari surish bilan ifodalanadi. Turkiston ma'rifatparvarlari jaholat, bilimsizlik, madaniyatsizlik, mutaassiblik, diniy aqidaparastlikni inson azob-uqubatlarining asl sabablari deya talqin etdilar. Ular podsho yakkahukmronligi (absolyutizm)ga qarshi kurashdilar, siyosiy erkinlik va inson huquqlarini yoqlab chiqdilar. Turli mamlakatlarda ma'rifatchilik harakatlari o'ziga xos, milliy xususiyatlarga ega boTgan, ammo ulaming mushtarak jihatlari ham mavjud edi. Bu jihatlar Turkiston jadidlari faoliyatida ham namoyon boTdi. Jumladan, ular mavjud tuzum, uning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sohalardagi barcha salbiy ko'rinishlariga va kamchiliklariga qarshi kurashish; maorif, erkinlik, hayotning insoniy-madaniy jihatlarini shakllantirish, ulami qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, ma'naviy va axloqiy meyorlarni takomillashtirish; xalq ommasi manfaatlarini himoya qilish, xalq farovonligini oshirishga sidqidildan intilish yo'lidan bordilar. Jadidlar Turkistonda azaldan mavjud bo'lgan, ya'ni Alisher Navoiy, Mirzo Bedil va Boborahim Mashrabdan qolgan merosdan foydalangan holda Turkistonda demokratik va taraqqiyatparvar g'oyalami davom ettirdilar.

### ***Yakunlarni chiqaramiz!***

Behbudiy, Munavvar Qori - yirik jadid m a'rifatparvarlari.

- Turkiston jadidlari podsho yakkahukmronligiga qarshi turdilar.
- Jadidlar yoshlami chet elda o'qitish tarafдорлари edi.

### ***Atamalar izohi***

**Senzura** - (*lotincha*) - hokimiyatning mavjud tuzum uchun noma'qul yoki zararli deb hisoblangan maTumotlami cheklash maqsadida matbuot ustidan nazorat qilishi.

## O'qituvchi: K. Polvonov

FAN: Jahon tarixi

SINF: 9-sinf

MAVZU: XIX asr oxiri — XX asr boshlarida boshlarida Hindiston

### TEXNOLOGIK XARITA

<b>MAVZU</b>	<b>9-sinf</b> XIX asr oxiri — XX asr boshlarida boshlarida Hindiston
<b>Maqsad, vazifalar</b>	<b>Maqsad:</b> O'quvchilarga XIX asr oxiri — XX asr boshlarida boshlarida Hindiston to'g'risida bilimlar berish <b>Vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"><li>- o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish.</li><li>- mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimini baholash.</li></ul>
<b>O'quv jarayonining mazmuni</b>	XIX asr oxiri — XX asr boshlarida boshlarida Hindiston to'g'risida bilimlar berish
<b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</b>	<b>Uslug:</b> Og'zaki bayon qilish, "Aytchi menga" o'yini, "Tushunchalar mazmuni", "BBB" texnologiyasi. <b>Shakl:</b> suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhrar va jamoada ishslash. <b>Vosita:</b> Tarqatma materiallar: matnlar, portretlar. <b>Usul:</b> Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida. <b>Nazorat:</b> Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. <b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.
<b>Kutiladigan natijalar</b>	O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida o'quvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol beri shva savollarga javob berishga o'rgatadi. O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishslashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyatni kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholay oladi.
<b>Kelgusidagi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)</b>	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishslash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. O'quvchi: matn bilan mustaqil ishslashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni

	o‘rganadi. O‘z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.
--	---

## **DARSNING BLOK CHIZMASI**

	Dars bosqichlari	Vaqti
	Tashkiliy qism	3 minut
	O‘tilgan mavzuni takrorlash	12 minut
	Yangi mavzuni guruholash bilan ishlash	15 minut
	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
	Baholash	3 minut
	Uyga vazifa	2 minut

### **Darsning borishi**

#### **I. Tashkiliy qism:**

O‘quvchilar bilan salomlashish, sinf tozaligiga e’tibor qaratish, o‘quvchilarni darsga tayyorlash, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O‘zbekistonda va dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o‘quvchilar orqali) tanishtirish.

#### **Darsning jihozlanishi va darsga hozirlik ko‘rish**

- 1.Darslik, mavzuga oid rasmlar
- 2.Dunyo va O‘zbekiston xaritasi
- 3.Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar)
4. Sinf xonasini guruhlarga ishlashga tayyorlash (sinf o‘quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhgaga bo‘lib, stollarni qo‘yib chiqish)

#### **Dars turi: Aralash**

Dars jarayonida qo‘llaniluvchi metodlar: “Aytchi menga” o‘yini, “Tushunchalar mazmuni”, “BBB” texnologiyasi

#### **Sinfni guruholash bilan ishlashga tayyorlash**

O‘quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga “Aytchi menga” o‘yini, “Tushunchalar mazmuni”, “BBB” texnologiyasi haqida tushunchalar beriladi.

#### **II. O‘rganilgan mavzuni so`rab baholash**

O‘quvchilar quyidagi “Aytchi menga” o‘yini orqali baholanadi:

- Barcha ishtirokchilarga tarqatuv varag‘i beriladi va bu varaqda aks ettirilgan savollardan biri o‘ng tomondagi qo‘shti ishtirokchiga beriladi. U bir daqiqa davomida berilgan savolga javob beradi. Keyin javob bergen ishtirokchi varaqdagi savollardan birini tanlab, o‘zining o‘ng tomondagi qo‘shtisiga beradi. Bu jarayon shu tariqa guruhning barcha ishtirokchilari savollarga javob berib bo‘lmasunlarigacha davom etadi.
- Ishtirokchilar savol tanlab, guruhning istalgan o‘quvchisiga (navbatma-navbat) savol beradilar. Javob to‘liq bo‘lishi lozim. Javob berishga 1 daqiqa ajratiladi.

- Ishtirokchilar o‘zlari javob berishni xohlaydigan savolni tanlaydilar. So‘ng bir daqiqa davomida tanlangan savolga navbatma-navbat javob beradilar.

O‘quvchilarda tanlash imkoniyati mavjud bo‘lishi uchun savollar soni kamida 12 ta bo‘lishi kerak. O‘rta hisobda 12-14 daqiqa sarflanadigan mashqni bajarib bo‘lganingizdan keyin muhokama o‘tkaziladi:

- Mashqni bajarish vaqtida nimalarni his qildingiz?
- Qanday yangilikni bilib oldingiz?
- Nimalarga o‘rgandingiz?
- Sizni mashqni bajarish vaqtida nima hayratlantirdi (har bir bosqichda)?
- Va hokazo, o‘qituvchining ixtiyoriga ko‘ra.

Mashqning ikkinchi bosqichi o‘quvchilarga o‘z bilimlarini to‘ldirish, o‘rganilgan materialni aniqlashtirishga imkon yaratadi. Uning uchinchi bosqichi o‘quvchilarga o‘rganilayotgan material bo‘yicha o‘z bilimlarini namoyish etish va baholashga yordam beradi.

### **III. Yangi dars mazmuni (9-sinf XIX asr oxiri — XX asr boshlarida boshlarida Hindiston):**

O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi

Ma’ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

- ❖ Hindiston Buyuk Britaniya mustamlakasi
- ❖ Ingliz mustamlaka zulmining ayanchli oqibatlari
- ❖ Hindiston xalqining milliy- ozodlik harakati

### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun**

1) “Tushunchalar mazmuni” metodidan foydalanish

T/r	Tushunchalar	Mazmuni
1	Kontributsiya	(lotincha) - urushda yetkazilgan zarar o‘rnini qoplash uchun ma g ‘lub davlat tomonidan to ‘lanadigan to ‘lov
2	Metropoliya	(yunoncha) — o‘zga mamlakatlarni bosib olib, o‘z mustamlakasiga aylantirgan bosqinchchi davlat.
3	.....	
4		

### **V. Dars yakunlanadi va baholanadi**

O‘quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni o‘qituvchi baholash uchun o‘quvchilarning uyga berilgan vazifalarni to‘g‘ri bajarganligi, darsdagi faol ishtiroki e’tiborga olinib baholanadi.

### **VI. Uyga vazifa**

Yangi mavzuni darslik bo‘yicha o‘qib, mavzu oxiridagi savollarga javob tayyorlash va “BBB” jadvalini to`ldirib kelish

(O‘quvchilarga misol tariqasida tushuntirib berish kerak)

BILDIM	BILARDIM	BILMOQCHIMAN

## 29-§. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Hindiston

Hindiston bu davrda Buyuk Britaniya mustamlakasi edi. Metropoliya Hindistonne vitseqirol boshchiligidagi amaldorlar va politsiya yordamida boshqarar edi. Ingliz mustamlakachiligi sharoitida Hindistonda sarmoyadoriikkasoslangan mahalliy islilab ciliqarish tizimi yuzaga kela bosliladi. Yirik sanoat korxonalar qurishga kirisliildi. 1886-yilda to‘qimaciliik sanoatida 95 ta fabrika bor edi. Konlar soni ko‘paydi. Temiryo‘1 tartnoqlari 1900-yilda salkam 40.000 km ni taslikil qildi. Bu xomashyo tayyorlash va tasliishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Buyuk Britaniya Hindistonda sanoatni o‘ziga qulay qilib joylashtirishga harakat qildi. Asosiy sanoat korxonalar dengizbo‘yi port shaharlari yaqinida edi. Bundan Hindiston boyliklarini arzon va oson olib ciliqib ketish maqsadi ko‘zlandi. 1873-yildan 1883-yilgacha Hindiston bilan Buyuk Britaniya savdosi 60 foizga o‘sdi. Hindiston ingliz burjuaziyasining kapital kiritish zonasiga aylanib qoldi.

Dehqonchilikda agrotexnika madaniyati pastligicha qoldi. Mustamlakachilar tomonidan ochilgan sug‘orish inshootlari boryo‘g‘i 20 foiz yerni sug‘orishga yetar edi. 60—70 foiz yer, hosilning katta qismini to ‘lash sharti bilan dehqonlarga ijaraga berilardi. Qarz hisobiga ishlab berishga majbur bo‘igan odamlar soni tobora ko‘paya bordi. Qishloq xo‘jaligining eng serdaromad tarmoqlariga (choy, kanop, paxta) sarmoya solish katta foyda keltirar edi. Bu sohaga ingliz ishbilarmonlari ishchilar yollar va ular qul deb atalar edi. Hindiston XIX asr oxirida dunyo bozoriga katta miqdorda sanoat va qishloq xo‘jaligi mollari chiqara bosliladi. Lekin, olingan daromad ingliz mustamlakachilarini boyitdi. Qisliloq xo‘jahgida monokultura vujudga keldi. Bengaliya — kanop, Assam — choy, Bombey va Markaziy Hindiston — paxta, Panjob — bug‘doy yetishtirishga ixtisoslashdi. Yer egalari, bank egalari, sudxo‘rlar dehqonlami qarzga botirib, ulami ayancili ahvolga solib qo‘ydilar. 1870—1890-yillar davomida Hindistonda 20 martadan ko‘p ocharchilik yuz berdi. Natijada, 18 mln. odam qirilib ketdi. 1878-yilda ingliz ma‘muriyat Hindistondagi milliy tillarda chiqadigan matbuot haqida qonun qabul qildi. Qonun barcha gazetalami inglizlar nazoratiga o‘tkazdi. Tez orada o‘qotar qurollami saqlamaslik haqida akt qabul qilindi. Buyuk Britaniya mahalliy burjuaziyaga „qisman yon bosish siyosati“ni ham yurita bosliladi. Ulaming vakillari shaharlar ma‘muriyatiga saylana bosliladilar. Shunday bo‘lsa-da, Hindiston faqat Buyuk Britaniya orqaligina savdo qila olardi, xolos. XX asr boshlarida Hindistonda kapitalizm sekinlik bilan bo‘lsa-da, rivojiana bosliladi. 1910-yilga kelib kanop-tola fabrikalari soni ikki barobar ko‘paydi. Paxta xomashyosi tayyorlash, surp mato to ‘qish korxonalarining 215 tasi liind kapitalistlariga qaraslili edi. Sanoat ishchilari soni salkam 1 mln. kishiga yetdi. Buyuk Britaniya barcha ko‘mir havzalari, kanop sanoati, choyzorlami, transport, savdo va sug‘urta jamiyatlarini o‘z qo‘liga to ‘plab oldi va butun Hindiston ishlab chiqarish tizimi ustidan nazorat o‘rnatdi. Bu yerda metropohya kapitali juda tez o‘sib bordi. Biroq, xalq ommasining turmusli esa tobora yomonlasliib borgan. 1896-1906-yillarda 10 mln. dan ortiq odam ochlikdan oldi. 1904-yilda esa 1 mln. odam vabodan qirildi. 1905-yili Kerzon universitetlarga kirish pulini ikki barobarga osliirdi. Ulardagi huquq fakultetlari „yopib“ qo‘yildi. Demokratik ruhdagi, xalq manfaatini ko‘zlovclii talabalaming universitetlarga kirishlii butunlay taqiqlandi. Hindiston xalqi mustamlakachilik zulmiga 1 qarslii ozodlik kuraslii olib bordi. 1885-yilda Bombay shahrida muayyan dasturiga ega siyosiy partiya — „Hindiston milliy kongressi“ (HMK) tuzildi. Ayni paytda, „Musulmonlar ligasi“ ham tashkil topdi. Endi inglizlar hind-musulmon

raqobatini yanada kuchaytirib yubordilar. Kongress o‘z safiga yirik savdo-sanoat kapitali vakillarini, liberal pomeshiklar hamda milliy ziyolilami birlashtirdi. Dastlabki vaqtarda Hindiston milliy kongressiga ingliz mustamlaka ma’muriyati qarsliilik qilmadi. Bunday munosabatni Hindiston vitse-qiroli lord Dafferin „milliy kongress inqilobdan arzonroq“ deb izohlagan edi. Inglizlar o‘ylagandek, milliy kongressning talablari dastlabki paytlarda juda ham mo’tadil bo‘ldi. Bu talablar Britaniya hukmronligini saqlab qolgan holda, ba’zi islohotlar o‘tkazishnigina ko‘zda tutardi. Ya’ni chetdan keltiriladigan ip-gazlamalarga boj belgilash, mahalliy vakillik muassasalarining huquqini kengaytirish, liindlami boshqarish islilariga jalb etish, texnik ta’limni uyuştirish va boshqalar edi. Biroq, vaqt o‘tislid bilan bu partiya katta mavqega ega bo‘la bordi. 1890-yilda „so‘l“ — radikal oqim shakllandi. Unga Bal Gangadxara Tilak (1856—1920) rahbarlik qildi. U hind xalqining milliy ongini uyg‘otish, milliy g‘ururini ko‘tarish yo‘lidan bordi. Dinga, uning ommani uyuştiruvchi kuchiga katta baho berdi. Tez orada u Puna shahrida mustaqil o‘rtta maktab taslikil qildi. Maktab o‘quvcliilar ongiga vatanparvarlikg‘oyalarini singdira bosliladi. 1880-yilda Tilak „Kesari“ (Slier) gazetasini tashkil etdi. Gazeta yoshlari o‘rtasida vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qila bosliladi. Hindiston sharoitida qurolli qo‘zg‘olon yo‘li bilan ozodlikka ciliqishning iloji yo‘qligini anglagan Tilak kurashning „kuch islilatmaslik“ y‘olini tanladi. Bu usulda asosiy e’tibor ingliz tovarlarini boykot qilishga qaratildi. „Xudo Hindistoni xorijiy mamlakatlarga hech qachon hadya qilgan emas“, der edi Tilak. Tilak tarafdrorlari ommani mustamlakachilarga qarshi nafrat ruliida tarbiyalashardi. Bundan xavfsiragan inglizlar 1897-yili Tilakni bir yarim yilga qamadilar. Lekin tez orada ozod qilishga majbur bo‘ldilar.

**Bengaliyaning bo‘linishi.** Milliy-ozodlik harakatini „bo‘g‘ishga“ intilib, ingliz mustamlakachilari 1905-yilda Bengaliyani ikki qismga bo‘lib tashlashdi. Chunki, Bengaliya mustamlakachilikka qarshi kuraslming eng kuchli harakat markazlaridan biriga aylangan edi. Bu tadbir aks ta’sirga ega bo‘ldi. Hindistonda milliy-ozodlik harakati yangidan kuchayib ketdi. Kalkuttada namoyish bo‘lib, unda 100 ming kislii qatnashdi. Norozilik chiqishlari birin ketin mamlakatning katta qismini egalladi. 1906-yil dekabrda „so‘l“ radikal oqim talabi bilan Hindiston milliy kongressi qo‘sishimcha qaror qabul qildi. „Svaraj“ („o‘z hokimiyatimiz“), „Svadeshi“ („o‘z ishlab chiqarishimiz“), „Ingliz mollariga boykot“ xalq orasida katta e’tibor qozondi. Tilak nafaqat ingliz mollaridan, balki ingliz boshqaruvidan ham voz kechishga chaqirdi. Boshqaruvni liindlashtirishga, mahalliy millatni fabrika va zavod qurishga chaqirdi. „Paysa fond“ nomli mablag‘ jamg‘armasi tuzdi. Hind sanoati mollarining ko‘rgazmalarini taslikil etdi. „Svaraj“, „Svadeslii“ dasturi ommaga katta ta’sir ko‘rsatdi. 1908-yili Bombay viloyatining Surat shahrida Hindiston milliy kongressining qurultoyi chaqirildi. Biroq, unda „Svaraj“, „Svadeslii“ dasturidagi asosiy mazmun — „o‘z hokimiyatimiz“ g‘oyasi qabul qilinmadni. Mo’tadil oqim ingliz imperiyasi tarkibida qohsh, ayni paytda, o‘z-o‘zini boshqarish huquqi berilishi tarafdrorlarining fikri ma‘qullandi. Radikal oqim (Tilak boshliq) HMK tarkibidan ciliqarildi. Ingliz ma’murlari tez orada „Qonunga xilof“ majlislar va matbuot haqida taqiqlovchi qonunlar chiqardilar va shafqatsiz qataq‘onga zo‘r berdilar. Ish tashlash harakatining rahbarlarini sud qilinmasdan otishga hukm qilina boshlandi. Shu yo‘l bilan Hindistondagi ozodlik harakatini vaqtincha bostirishga muvaffaq bo‘lindi.

**Metropoliya** (yunoncha) — o‘zga mamlakatlarni bosib olib, o‘z mustamlakasiga aylantirgan bosqinch davlat.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Hindistonning qay tarzda Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylanganligini eslang.
2. Ingliz mustamlaka zulmining ayanchli oqibatlariga misollar keltiring.
3. Hindiston xalqining milliy- ozodlik harakatida Hindiston milliy kongressining tutgan o‘rni haqida nimalarni bilib oldingiz?